

MAXFIYLIK VA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI SAQLASH TO'G'RIDAGI BITIM

Toshkent shahri

1. "CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" AJ veb-saytlarimiz, xizmatlarimiz, mobil saytlarimiz, dasturlarimizdan, shuningdek, mahsulot va xizmatlarimizdan foydalanishni osonlashtiradigan Smartpos Trade, Smartpos Supply, Silen, A-pay, X-file kabi va boshqa ilovalarimizdan foydalanayotganingiz uchun sizga minnatdorchilik bildiradi.

2. Biz saytlarimiz, xizmatlarimiz, dasturlarimiz, ilovalarimizga tashrif buyurgan yoki foydalangan har bir kishi va foydalanuvchining shaxsiy maxfiylik huquqlarini himoya qilishga to'liq mas'ulmiz va Mijozlarimiz tomonidan taqdim etilgan har qanday ma'lumotni himoya qilish uchun zarur choralarni ko'ramiz.

3. "CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" AJ kompaniyasi Mijozlarning ishonib topshirgan maxfiy ma'lumotlarini saqlash tamoyiliga har doim sodiq qoladi. Bizga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash biz uchun ustuvor vazifadir.

4. Shaxsiy kabinet bu – Mijozning shaxsiy sahifasi. Shaxsiy kabinetga joylashtirilgan axborot va ma'lumotlar (Smartpos, Silen, A-pay, X-file va boshqalar) faqat mijozning o'ziga tegishlidir. Shaxsiy kabinetda avtorizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan mijozning individual login va/yoki paroli faqat Mijoz uchun berilgan bo'ladi. Kompaniya shaxsiy kabinetga kirish parollarni to'plamaydi va saqlamaydi hamda mijozning ruxsati va roziligisiz unga kirish huquqiga ega emas. Shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan axborot va ma'lumotlar davlat organlariga, shu jumladan soliq va boshqa davlat va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarga berilmaydi.

5. Kompaniya shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan axborot va ma'lumotlar maxfiy qolishi va uchinchi shaxslarga berilmasligiga kafolat beradi.

6. Mijoz shaxsiy kabinetning login va parolining xavfsizligi va uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligi uchun javobgardir. Mijoz login va/yoki paroldan foydalangan holda Shaxsiy kabinetga ruxsatsiz (mijoz tomonidan ruxsat etilmagan) kirish (avtorizatsiya qilish) holatlari va/yoki o'z parolining maxfiyligi buzilganligi (yoki bunga gumon bo'lsa) to'g'risida darhol Kompaniyani xabardor qilishi shart.

7. Ushbu Maxfiylik siyosati bevosita Kompaniyamizning veb-saytlari, dastur xizmatlari, ilovalari va ular orqali olingan ma'lumotlarga taalluqlidir. U boshqa saytlarga, bizning saytimizga havola yoki saytimiz haqida ma'lumot keltirilgan uchinchi tomon, shu jumladan, bizning hamkorlarimizning veb-saytlariga taalluqli emas.

8. Iltimos, ushbu Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi bitim (keyingi o'rinlarda "Bitim" deb yuritiladi) mazmuni bilan tanishib chiqing. Unda Kompaniyamizning maxfiylik siyosati yoritilgan va shaxsiy ma'lumotlar qanday to'planishi va qayta ishlanishini tushuntirib berilgan.

9. Veb-saytlar, xizmatlar, ilovalar, dasturlarga tashrif buyurish orqali Mijoz Bitimda ko'rsatilgan shartlarni qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi. Agar siz Bitim shartlaridan birortasiga rozi bo'lmasangiz yoki qabul qilmasangiz, iltimos, veb-sayt, xizmatlar, dasturlar va ilovalardan foydalanmang yoki o'z shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim qilmang.

10. Shaxsiy ma'lumotlar – Mijozga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan, ushu Bitimga taalluqli va ushbu Bitimdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish uchun biz to'playdigan va qayta ishlaydigan ma'lumotlar.

11. Mijozga tegishli ma'lumotlar erkin usulda qayta ishlanadi va biz mijoz veb-saytning qaysi qismlari, qaysi mahsulot, xizmatlar, dasturlar, ilovalarga ko'proq qiziqish bildirayotganligini aniqlashimiz uchun foydalaniladi va biz mijozga uning uchun ko'proq foydali va kerakli ma'lumotlarni yuborishimiz mumkin bo'ladi.

12. Biz Mijozning shaxsiy ma'lumotlaridan Mijozning shaxsini aniqlash, Mijozga Saytning, Xizmatlarning shaxsiylashtirilgan resurslariga kirishini ta'minlash, Mijoz bilan aloqa o'rnatish, shu jumladan bildirishnomalarni jo'natish, Mijozning so'rov va arizalarini qayta ishlash, mijoz tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini tasdiqlash, akkaunt yaratish, mijozga maxsus takliflar, axborot byulletenlari va boshqa ma'lumotlar haqida axborot berish, sayt, xizmatlar, dasturlar, ilovalardan foydalanish bilan bog'liq texnik yordam ko'rsatish, ish faoliyatini yaxshilash va foydalanish qulayligini oshirish, yangi xizmatlar, dasturlar, ilovalarni ishlab chiqish, shuningdek, shaxssizlashtirilgan ma'lumotlar asosida marketing, statistik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish maqsadida foydalanishimiz mumkin.

13. Kompaniya mijozlarni so'nggi voqealar, yangi mahsulotlar, maxsus takliflar va aksiyalar haqida xabardor qilish uchun axborot jo'natmalaridan foydalanadi.

14. Mijozning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish muddatsiz, qonun doirasida, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimlarida, avtomatlashtirish vositalaridan foydalanib yoki foydalanmasdan amalga oshiriladi.

15. Mijozning shaxsiy ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlariga faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda berilishi mumkin.

16. Kompaniya Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini, ruxsatsiz yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxalash, tarqatish, shuningdek uchinchi shaxslarning boshqa noqonuniy harakatlaridan himoya qilish uchun oqilona tashkiliy, texnik va ma'muriy choralarini ko'radi. Xavfsizlik choralari ofislarimizga cheklangan va nazorat ostida kirish va chiqish, kamchiliklar, zaifliklar, zararli dasturlarni aniqlash uchun veb-saytlar va mobil ilovalarni muntazam skanerlash kiradi.

17. Kompaniya quyidagi hollarda Mijozning maxfiy ma'lumotlari yo'qolgani yoki oshkor etilganligi uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olmaydi: agar bunday ma'lumotlar yo'qolishi yoki oshkor etilishidan oldin ommaga ma'lum bo'lgan bo'lsa, oshkor qilingunga qadar uchinchi shaxsdan olingan bo'lsa, Mijozning roziligi bilan oshkor qilingan bo'lsa.

18. Mijozlarimizning shaxsiy ma'lumotlarini saqlash Bitimda belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan muddat davomida amalga oshiriladi.

19. Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz aniq va to'g'ri bo'lishi muhim. Agar biz bilan bo'lgan munosabatingiz davomida shaxsiy ma'lumotlaringiz o'zgarsa, bizga xabar bering.

20. Biz ushbu Maxfiylik va Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosatini istalgan vaqtda Mijozning roziligisiz o'zgartirishimiz mumkin. Bitim O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilish sohasidagi qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritilganda, Kompaniya

rahbariyatining qaroriga binoan, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlari o'zgartirilganda, tashkiliy tuzilma va axborot va/yoki telekommunikatsiya tizimlarining tuzilishi o'zgartirilganda (yoki yangilarini joriy etilganda), Kompaniya faoliyati bilan bog'liq shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini o'zgartirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bitimga kiritilgan har qanday o'zgartirish, agar yangi tahrirda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, saytda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Bunday o'zgarishlardan keyin saytlar, xizmatlar va Kompaniyaning boshqa mahsulotlaridan foydalanishingiz o'zgartirilgan Bitimni qabul qilganingizni bildiradi. Biz mijozlarga biz to'plagan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha har qanday o'zgarishlardan xabardor bo'lib turishlari uchun muntazam ravishda veb-saytni tekshirib borishni tavsiya qilamiz. Saytdan foydalanish orqali siz Bitimni va unga kiritilgan o'zgartirishlarni vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqish mas'uliyatini o'z zimmangizga olishga rozilik bildirasiz.

21. Mazkur Bitim hamda Mijoz va Kompaniya o'rtasidagi munosabatlarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qo'llaniladi. Sud organlariga murojaat qilishdan oldin, da'vo qiluvchi tomon ikkinchi tomonga nizoni ixtiyoriy ravishda va o'zaro kelishuv asosida hal qilish to'g'risida yozma ariza berishi shart. Da'voni oluvchi da'vo olingan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida uni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ariza beruvchiga yozma ravishda xabar berishi shart. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud organiga yuboriladi

22. Amaldagi Bitim www.cdti.uz, www.smartpos.uz, www.silen.uz, www.a-pay.uz, www.x-file.uz sahifalarida joylashtirilgan.

“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” AJ

100090, O'zbekiston Respublikasi,

Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Do'stobod MFY,

Maxtumquli ko'chasi, 81

STIR: 306 344 019

h/r: 2020 8000 0050 6594 4001

“Hamkorbank” JSCB

Bank STIRi: 200 242 936, MFO: 00083

OKED: 58290

tel: +998 (55) 500-11-10

Direktor

Ko A.N.